


## QORAQALPOG`ISTON RESPUBLIKASINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyul)


Qoraqalpog`iston Respublikasi bo`yicha joriy yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 878,9 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 8,6 %ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 366,2 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 150,5 %), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 2512,7 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 104,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 155,0 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 97,2 %) tashkil etdi.

### Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so`m)



2018 yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`sish sur`atlari Nukus shahri, Shumanoy, Beruniy va Qonliko'l tumanlarida qayd etildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (respublika umumiy hajmiga nisbatan ulushi - 30,9 %), Beruniy (9,5 %), Xo'jayli (9,4 %), To'rko'l (8,9 %) va Qo'ng'irot (7,2 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 50,5 %ga o'sdi va 366,2 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,7 %iga to`g`ri keladi.


Kichik tadbirdorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra 2512,7 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 4,4 %ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,3 %ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2018 yil  
yanvar-iyul




2019 yil  
yanvar-iyul



 Yirik korxonalar  
 Kichik tadbirdorlik

### Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirdorlikning ulushi, (%)



 Kichik tadbirdorlik  
 Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirdorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Qonliko'l (99,8 %), Qorao`zak (99,6 %), Nukus (99,4 %), Kegayli (99,4 %) va Taxtako`pir (99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,7 %ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (31,1 %), Taxiatsosh (19,4 %) va To`rtko'l (10,6 %) tumanlarida kuzatilgan.

### Kichik tadbirdorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirdorlik (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qoraqalpog`iston Respublikasi</b>	<b>366 152,4</b>	<b>150,5</b>	<b>2 512 746,8</b>	<b>104,4</b>
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	10 500,4	79,5	184 344,8	107,9
Beruniy	6 635,9	87,2	266 961,7	107,7
Qonliko'l	176,4	173,2	74 498,9	107,6
Qorao`zak	379,1	67,3	95 045,4	106,1
Kegayli	388,5	97,6	60 536,8	104,9
Qo`ng`iroq	8 713,4	171,6	199 117,1	104,9
Mo`ynoq	401,6	100,4	19 810,8	105,5
Nukus	339,4	68,4	53 627,3	106,8
Taxiatsosh	13 206,4	94,8	54 749,7	109,2
Taxtako`pir	492,8	89,1	72 964,1	105,6

To`rtko'l	27 161,5	85,1	229 951,5	110,4
Xo`jayli	6 438,5	140,6	263 131,1	106,0
Chimboy	10 828,3	101,8	105 150,6	105,4
Shumanoy	515,7	122,9	61 325,5	107,6
Ellikqal`a	3 147,7	175,9	159 193,2	104,5
Nukus sh.	276 826,8	182,6	612 338,2	97,5

2019 yil yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo`yicha aholi jon boshiga 1534,7 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 7,0 %ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-iyul oylarida o`tgan yilning shu davriga nisbatan respublikamizning barcha tumanlarida o`sish qayd etilib, eng yuqori ko`rsatkichlar Nukus shahri (2812,9 ming so`m), Xo`jayli (2218,7 ming so`m) va Taxtako`pir (1 841,0 ming so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Mo`ynoq (643,7 ming so`m), Kegayli (680,7 ming so`m) va Taxiatosh (930,9 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich respublika shahar va tumanlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Qoraqalpog`iston Respublikasi</b>	<b>1 534,7</b>	<b>107,0</b>
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	993,6	103,8
Beruniy	1 452,2	105,0
Qonliko`l	1 478,7	106,2
Qorao`zak	1 821,1	105,2
Kegayli	680,7	104,2
Qo`ng`irot	1 614,8	105,4
Mo`ynoq	643,7	103,8
Nukus	1 092,4	104,1
Taxiatosh	930,9	104,8
Taxtako`pir	1 841,0	105,2
To`rtko`l	1 217,4	105,0
Xo`jayli	2 218,7	105,4
Chimboy	1 005,0	103,8
Shumanoy	1 110,3	106,7
Ellikqal`a	1 036,0	103,1
Nukus shahri	2 812,9	112,6

Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyul oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,2 %ni tashkil etib, 91,8 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 5,9 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 99,7 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


## **QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

*(2019 yil yanvar-iyul)*

Yil boshidan respublika bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1027,3 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 17,2 %ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-iyul oylari yakunlariga ko`ra 562,5 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 101,2 %ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 54,8 %ni tashkil qilmoqda. Ushbu ko`rsatkichni tumanlar bo`yicha tahlil qilganda, Beruniy, Qorao`zak, Qo`ng`iroq, Qonliko`l, Mo`ynoq, Nukus, Taxtako`pir va Ellikqal`a tumanlarida 100 %ni tashkil etgan.

### **Yirik va kichik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 45,2 %ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Xo`jayli (jamiga nisbatan ulushi – 95,0 %), Nukus shahri (46,3 %) va Amudaryo (4,5 %) tumanlarida kuzatildi.

### **Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi**

	Jami (mln.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mln.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qoraqalpog`iston Respublikasi</b>	<b>1027287,1</b>	<b>117,2</b>	<b>464793,8</b>	<b>145,0</b>	<b>562493,3</b>	<b>101,2</b>
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	11 988,9	101,8	533,6	120,8	11455,3	101,1
Beruniy	45 189,3	101,0	-	-	45189,3	101,4
Qonliko'l	13366,1	101,3	-	-	13366,1	101,3
Qorao`zak	8062,2	101,0	-	-	8062,2	101,0
Kegayli	540,5	98,0	0,5	2,8	540,0	100,9
Qo`ng`irot	23052,8	101,0	-	-	23052,8	101,0
Mo`ynoq	1 969,3	100,9	-	-	1969,3	100,9
Nukus	48 973,0	101,0	-	-	48973,0	101,0
Taxiatosh	14 457,7	100,2	406,9	69,8	14050,8	101,5
Taxtako`pir	6 398,3	100,9	0,1	0,4	6398,2	101,5
To`rtko'l	47 092,8	93,2	1 726,0	30,3	45366,8	101,2
Xo`jayli	229 861,1	163,0	218 481,5	168,4	11379,6	101,1
Chimboy	14 371,2	94,8	383,7	28,4	13987,5	101,3
Shumanoy	250,7	96,9	2,3	18,5	248,4	100,9
Ellikqal`a	35 969,7	101,1	-	-	35969,7	101,1
Nukus sh.	525 743,5	113,9	243 259,2	133,4	282484,3	101,2

**Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining  
o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati To'rtko'l (93,2 %) tumanida qayd etildi.